



“YASHIL” MOLIYALASHTIRISHDA MOLIYAVIY RISKLAR

PhD Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0000-2340-9667

Annotatsiya. Ekologik risklar nafaqat ijtimoiy hayotga xavf soladi, balki xo'jalik yurituvchi subyektlarda katta moliyaviy yoqotishlarga sabab bo'ladi. Ushbu sohada “yashil” moliyaviy instrumentlarni joriy qilinishi moliyaviy risklarni kamaytirish instrumenti sifatida maydonga chiqadi. Maqolada “yashil” iqtisodiyotga o'tish istiqbollari, “yashil” moliyalashtirish tushunchasiga oid qarashlar, rivojlanish tendensiyalari, va “yashil” moliyalashtirishni tashkil etishda vujudga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklar va “yashil” moliyaviy instrumentlar orqali bartaraf etishi ko'zlangan moliyaviy risklar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: “yashil” iqtisodiyot, “yashil” moliyalashtirish, “yashil” obligatsiya, moliyaviy risklar.

ФИНАНСОВЫЕ РИСКИ В «ЗЕЛЕНОМ» ФИНАНСИРОВАНИИ

PhD Турсунходжаева Ширин Зафар кизи

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. Экологические риски не только угрожают общественной жизни, но и вызывают большие финансовые потери у хозяйствующих субъектов. В этой сфере внедрение «зеленых» финансовых инструментов используется как инструмент снижения финансовых рисков. В статье анализируются перспективы перехода к «зеленой» экономике, взгляды на концепцию «зеленого» финансирования, тенденции развития, финансовые риски, которые могут возникнуть при организации «зеленого» финансирования, а также финансовые риски, которые призваны быть реализованы. Устраняется с помощью «зеленых» финансовых инструментов.

Ключевые слова: «зеленая» экономика, «зеленое» финансирование, «зеленые» облигации, финансовые риски.

FINANCIAL RISKS IN "GREEN" FINANCING

PhD Tursunxodjayeva Shirin Zafar kizi

Tashkent State University of Economics

Abstract. Environmental risks not only threaten social life, but also cause large financial losses in economic entities. In this area, the introduction of "green" financial instruments is used as an instrument to reduce financial risks. The article analyzes the prospects of the transition to the "green" economy, views on the concept of "green" financing, development trends, financial risks that may arise in the organization of "green" financing, and financial risks that are intended to be eliminated by means of "green" financial instruments.

Key words: "green" economy, "green" financing, "green" bond, financial risks.

Kirish.

Bugungi kunda jahon moliya bozorida “yashil” instrumentlar va mas’uliyatli investitsiyalarning ulushini oshishiga hizmat qilayotgan “Yashil moliyalashtirish”, dolzarb milliy va global maqsadlarni ifoda etuvchi yashil iqtisodiyotga o’tishning ajralmas bo’g’ini sifatida ko’rilmogda.

Global risk report ma’lumotlariga kora, ayniqsa, ohirgi 5 yilda 5 ta top global risklarni hammasi ekologik risklar bo’lib kelmoqda. Ekologik risklarni vujudga kelishi oqibatida nafaqat ekologiya va atrof-muhitga zarar yetmoqda balki, aholi, davlatlar, korxonalar ham moliyaviy qiyinchilikka uchrashmoqda. Xususan, 36 mamlakatning markaziy banklari iqlim omillari moliyaviy risklar bilan bog’liqligini va ular markaziy banklarning e’tibori va manfaatlari sohasida ekanligini tan oldi (Ершов и др., 2020). Shuning uchun, moliyaviy institutlar moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsadida moliyaviy siyosatini ishlab chiqishda iqlim omilini inobatga olishni, hamda ushbu sohada xalqaro hamkorlikni kuchaytirish siyosatini olib borishmoqda.

Ushbu maqsadda, har bir mamlakat “yashil” modernizatsiya sohasida innovatsiyalar va investitsiyalarni moliyaviy qo’llab-quvvatlash mexanizmini shakllantirishning o’ziga xos yo’lini izlamoqda. Hususan, O’zbekistonda ham aniq belgilangan siyosiy iroda, shuningdek, yashil moliya bozorining iqtisodiyot va ekologik maqsadlarini ifoda etishdagi yuqori salohiyati hamda emitentlar, tartibga soluvchilar va investorlarning mamlakatda yashil moliyalashtirish bozorini rivojlantirishga qiziqishi yashil moliya uchun infratuzilmani yaratish zarurligini belgiladi. Shunga ko’ra, “2030-yilgacha O’zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o’tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo’yicha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 2022 yil 2 dekabrda PQ-436-sonli O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori e’lon qilindi (Qaror, 2022). Unda O’zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o’tish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o’sishni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida 2030-yilgacha O’zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o’tish va “yashil” o’sishni ta’minlash dasturi qabul qilindi. Ushbu dasturning 6 ustuvor yo’nalishi sifatida tashqi va ichki “yashil” moliyalashtirish oqimlarini ko’paytirish belgilangan bo’lib, investitsiya portfelida yashil obligatsiyalar ulushi oshirish va davlat ulushi yetakchilik qilgan aksiyadorlik jamiyatlarida “yashil” iqtisodiyotga o’tishda peshqadamlarga aylantirish bo’yicha vazifalar belgilangan.

Yashil iqtisodiyotga o’tish yildan-yilga dolzarb ahamiyat kasb etishi oqibatida, moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish ham oshib bormoqda. Olimlarning baholashiga ko’ra, 2030 yilga kelib “yashil” loyihalarni amalga oshirish uchun 93 trln. dollar yo’naltirishi ko’zga tutilgan¹⁰³.

Darhaqiqat, bugungi kunda “yashil” moliyalashtirish instrumentlari orasida eng jadal o’sish “yashil” obligatsiyalar ulushiga to’g’ri keladi. Global yashil obligatsiyalar emissiyasi, Climate Bonds Initiative (CBI) ma’lumotlariga ko’ra, 2007-yilda yashil obligatsiyalar bozori tashkil topganidan buyon ularning jami emissiyasi 2 trillion dollardan oshganini e’lon qildi. Bu ko’rsatkich 2022 yilning o’zida 0.5 trln dollarni, 2025-yilga kelib u 5 trillion dollarga yetishi mumkinligi bashorat qilindi¹⁰⁴. Shu jumladan, O’zbekiston ham ilk marotaba 4,25 trln so’mlik yashil suveren xalqaro obligatsiyalar London fond birjasida joylashtirdi¹⁰⁵.

Adabiyotlar sharhi.

“Yashil” moliyalashtirish nisbatan yangi tarmoq bo’lishiga qaramay, bugungi kunda turli olimlar, moliyaviy institutlar va xalqaro tashkilotlarning hisobotlarida bu borada metodologik yondashuvlar takomillashtirilib kelinmoqda. Jumladan, iqtisodchi olimlardan T.A.Naynedova

¹⁰³ Communication from the Commission. Action Plan: Financing Sustainable Growth. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:52018DC0097>

¹⁰⁴ climatebonds.net/resources/press-releases/2022/10/climate-bonds-calls-5trillion-green-bond-issuance-year-2025

¹⁰⁵ <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/press-releases/ozbekiston-ilk-bor-425-trillion-somlik-yashil-suveren-yevroobligatsiyalarni-london-fond-birjasida-joylashtirdi>

“yashil” moliyalashtirish deganda “yashil” loyihalarni moliyalashtirish uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish sifatida qaragan (Найденкова, Новокшенова, 2022) bo'lsa, С.С.Полоник fikriga ko'ra “Yashil” investitsiyalar - mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi kontekstida ekologik foyda keltiradigan, xususan, havo, suv va tuproq ifloslanishini kamaytirish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, iqlim o'zgarishini yumshatish, atrof-muhitga antropogen ta'sirni hisobga olish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini kengaytirish kabi maqsadli ekologik investitsiyalar tushuniladi” (Полоник, 2018) deb izoh keltirgan.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlarning hisobotlarida esa, xususan, kapital bozori xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra: “Yashil” investitsiyalar - iqlim o'zgarishini sekinlashtirish, ifloslanishga qarshi kurashish, biologik xilma-xillikni saqlash kabi ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish hisoblanadi”¹⁰⁶, G20 Yashil moliya sintezi hisobotida esa, “Yashil” investitsiyalar - ekologik barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga hissa qo'shuvchi va ekologik foyda keltiradigan loyihalar hisoblanadi”¹⁰⁷ deb ta'rif keltirilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda ekologik risklarning keskinlashuvi korxonalar, investorlar va biznes egalarining moliyaviy-ho'jalik faoliyatlariga katta moliyaviy yoqotishlarni olib kelishi, ularning operatsion faoliyatida ushbu risklarga doimiy ravishda inobatga olish, yumshatish choralari ko'rish, ekologiyani qo'llab-quvvatlovchi loyihalarga investitsiya kiritish yo'li bilan amalga oshirish mumkinligi “yashil” iqtisodiyotning rivojlanib takomillashib borayotgan sohaga aylanishiga yo'l ochmoqda. Xususan, ushbu tarmoqni rivojlantirishda hozirda “yashil” investitsiyalarni kiritish va “yashil” moliyalashtirish usullaridan foydalanish uchun 4 ta ustuvor yo'nalish mavjud: (1-rasmga qarang)

Yuqoridagi rasmdan ko'rishimiz mumkinki, “yashil” moliyalashtirish instrumentlarini joriy qilinishi bugungi kunda 4 hil yo'nalishda ommalashib bormoqda va aynan shu sohalarga “yashil” moliyalashtirish instrumentlarini joriy qilinishi “yashil” iqtisodiyotga o'tish uchun qulay sahroit yaratib ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga va ekologik risklar keltirib chiqaruvchi moliyaviy yoqotishlar darajasini kamaytirishga xizmat qilar ekan. Ulardan asosiysi va aynan xususi sektorda foydani ko'paytirish bilan qiziqishni oshiruvchi investitsiya turlari bu, “yashil” texnologiyalarga va resurs samaradorligini oshirishga sarmoya kiritish. Bunda zaharli moddalarni ajratuvchi va o'zidan yuqori ifloslantirish darajasini keltirib chiqaruvchi texnologiyalardan voz kechib, uning o'rniga ishlab chiqarish jarayonini barqarorlashtirish bilan birgalikda, ekologiyani qo'llab-quvvatlovchi, yoqilg'i hamda energiya resurslar sarfini minimallashtiruvchi texnologiyalarni ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltiruvchi investitsiyalar tushuniladi. Keyingi o'rinlarda investitsiyalar aynan “yashil” infrastruktura va “yashil” ekotizimni yaratish uchun investitsiyalar hisoblanadi. Ushbu investitsiyalar xususi sektor sarmoya kiritishi qiyin, chunki bu asosan davlatning funksiyasi bilan ko'proq bog'liq, hamda uzoq yillik qaytimni talab qiladi. Bu yerda, davlat soliq imtiyozlari, grand va boshqa moliyaviy yordam usullaridan foydalangan holda takomillashtirishi mumkin bo'ladi. uzoq muddatga tayanadigan ushbu investitsiya usullari, kelajakda yuqori rentabellik loyihalar hisoblanadi.

¹⁰⁶ Sustainable Finance. High-level definitions [Electronic resource] // International Capital Market Association. – Mode of access: <https://www.icmagroup.org/assets/documents/Regulatory/Green-Bonds/Sustainable-Finance-High-Level-Definitions>

¹⁰⁷ G20 Green Finance Synthesis report [Electronic resource] // G20. – 2016. – Mode of access: <http://www.g20.utoronto.ca/2016/green-finance-synthesis.pdf>. – Date of access: 06.06.2023.




1-rasm. “Yashil” moliyalashtirishning asosiy yo’nalishlari¹⁰⁸

Albatta, yangi tarmoq yangi risklarni vujudga kelishiga zamin yaratadi. “Yashil” moliyalashtirishga o’tishda ham risklarni tasniflashda shartli ravishda 2 guruhga bo’lishimiz mumkin, ular: “yashil” moliyalashtirishga o’tishga to’sqinlik qiluvchi risklar va “yashil” moliyalashtirish orqali kamaytiruvchi risklar. Quyidagi rasmda, ularni batafsil ko’rish mumkin. (2-rasmga qarang).

Yuqoridagi rasm ma’lumotlariga ko’ra, “yashil” moliyalashtirishga o’tishga to’sqinlik qiluvchi risklardan quyidagilarni keltirib o’tish mumkin:

1. Innovatsion risk. Ushbu risk bozorga har qanday yangi mahsulotni joriy qilishda vujudga keladi va asosan venchurli moliyalashtirish yo’li bilan amalga oshiriladi. “Yashil” moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish amaliyotda yangi bo’lganli bois uning iqtisodiy samarasi mavhum bo’lgan loyihalarni qo’llab-quvvatlashga qaratilishi bilan harakterlanadi. Shu bois, risk darajasi ham yuqori hisoblanadi. Ushbu riskni kamaytirishda davlat va davlat korxonalari, davlat xususiy sherikchilik loyihalari maydonga chiqadi. Chunki dunyo amaliyotdan ma’lumki, ular “yashil” iqtisodiyotni turli hil imtiyoz, preferensiya, subsidiya va boshqa instrumentlar orqali qo’llab-quvvatlovchi asosiy subyektlar bo’lib hisoblanishadi;

¹⁰⁸ Muallif tomonidan tayyorlandi



2-rasm. “Yashil” moliyalashtirishda vujudga keluvchi risklar¹⁰⁹

2. Yuridik risk. Ushbu risk sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarning takomillashmagani va ko'p davlatlarda hali hanuz hattoki mavjud emasligi, “yashil” moliyalashtirishni tashkil etishda amaliy qiyinchiliklarni yuzaga kelishi bilan harakterlanadi. Tartibga soluvchi asosning kamchiliklari moliyaviy risklarning ko'payishiga, ko'zlangan maqsadga erishmaslikka, noqonuniy jarayonlarning kuchayishiga, tizimning texnologik buzilishlariga, manfaatlar to'qnashuvi va kabi nomutanosibliklarga olib kelishi mumkin;

3. Raqobat riski. Ma'lumki, “yashil” moliyalashtirish ekologik muvozanatni barqarorlashtirish maqsadida ekologik muqobil resurslarni ishlab chiqarishga asoslangan holda amalga oshiriladi, bunda hozirda foydalanib kelayotgan resurslarni ishlab chiqaruvchi yirik korporatsiyalar bozorda o'z o'rnini berishlariga to'g'ri keladi. Bu bir tomondan ushbu korxonalarining moliyaviy barqarorliklarini saqlab qolish maqsadida nosog'lom raqobat qurollari, qo'shib olish va birlashishlardan foydalanish bilan o'z o'rnini boshqa muqobil resurs ishlab chiqaruvchi korxonalariga bo'shatishdan bosh tortishi va ularning manfaatlariga qarshi sohaning rivojlanishiga yo'l qo'ymasliklari mumkin. boshqa tomondan, yirik korxonalar davlat uchun yirik soliq to'lovchi bo'lib hisoblanadi, bu davlat uchun qisqa muddatli iqtisodiy zarar keltirishi ushbu korxonalarni davlat qo'llab-quvvatlashni davom ettirishi mumkin. bu esa, raqobatda yangi korxonalarining siqib chiqarilishi xavfini kuchaytiradi;

4. Ma'lumot riski. Investorlar aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda o'z investitsiya portfelini shakllantirishadi. Ushbu hisob-kitoblar aniq tarihiy dinamik ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Lekin biz o'rganiyotgan soha yangi bo'lganligi bois zaruriy ma'lumotlarni olishda qiyinchiliklar vujudga kelishi tabiiy hisoblanadi. Ma'lumotlar tanqisligi, investorlar, “yashil” moliyaviy instrumentlari emintentlari uchun investitsion qarorlarni qabul qilishda

¹⁰⁹ Muallif tomonidan tayyorlandi

qiyinchiliklarni tug'diradi. Bundan tashqari, ushbu risk investitsiyalarning iqtisodiy samarasi haqida ma'lumotning mavjud emasligi bilan ham namoyon bo'ladi. Iqtisodiy samarani hisoblash imkonining cheklanganligi davlat berayotgan imtiyozlardan oqilona foydalanish haqidagi axborotni monitoring qilishni susaytiradi, bu esa tashkil etilgan korxonalar haqiqatda "yashil" iqtisodiy samara berayotganligi haqidagi ma'lumotning mavhumligini oshiradi;

5. Texnik risk. Bunda "yashil" moliyalashtirish instrumentlarining qo'llanishi ekologiyaga ta'sirini o'z vaqtida va to'g'ri baholash uchun texnik imkoniyatlarning cheklanganligi, mavjud emasligi yohud yetarli darajada emasligi bilan izohlanadi. Buning asosiy sabablaridan ushbu texnik ta'minotning qimmatligi; soha mutahassislarining taqchilligi, suniy intellekt, sun'iy yoldosh monitoring, katta hajmdagi ma'lumotlar tahlili kabi axborot texnologiyalardan samarali foydalanish mexanizm va infratrakturaning takomillashmaganligi hisoblanadi;

6. Institutsional risk. Ushbu risk ekologik tovar va xizmatlar bozorining rivojlanmaganligi va uning shakllanishi uchun institutsional tartibga solish mexanizmlarining yetishmasligi

Keyingi guruh risklar bu "yashil" moliyalashtirish orqali kamaytiruvchi risk, ularga quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Ekologik risk. Albatta, "yashil" iqtisodiyot "yashil" moliyalashtirish usullari ekologik vaziyatni yaxshilash, tabiiy ofatlarni oldini olish, iqlim inqiroziga barham berish maqsadida amalga oshiriladi. Shu bois, ushbu turga kiruvchi barcha darajadagi omillar uchun kurashish "yashil" moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanishdan asosiy va pirovard maqsad bo'lib hisoblanadi. "Yashil" moliyalashtirish ekologik vaziyatdan aziyat chekayotgan aholi, davlar, korxonalar moliyaviy qiyinchiliklarini oldini olish instrumenti sifatida maydonga chiqadi;

2. Portfel riski. "Yashil moliyalashtirish instrumentlarini o'z investitsiya portfeliga kiritgan investorlar nafaqat ma'lum darajada ijtimoiy manfaatni zimmalariga oladilar, balki yuqori istiqbolga ega korxonalariga sarmoy iritish orqali uzoq muddatga asoslangan yuqori daromadni ko'zlaydilar. Bu umumiy portfel riskni barqarorlashtirish, keng diversifikatsiya qilish imkoniyatini yaratadi;

3. Resurs riski. Ekologik vaziyat barqarorlashtirish maqsadida amalga oshirilishi ko'zlangan innovatsion g'oyalashning asosiy maqsadlaridan bu tabiiy resurslar sarfini minimallashtirgan holda, muqobil ekologik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi. Bu o'z navbatida davlat uchun uning tabiiy resurslarini saqlashga, ekologik holatini yaxshilashga, aholi farovonligini oshirishga xizmat qilsa, ushbu loyihalarni amalga oshirayotgan korxonalar uchun istibolli loyihalarni amalga oshirib yuqori daromad olishga, innovatsion g'oyalarni amaliyotga tadbiiq qilishga, ushbu mahsulotlardan foydalanuvchilar uchun o'z faoliyatida tejamkor ekologik toza resurslardan foydalangan holda resurs sarfiga xarajatlarni minimallashtirishga, daromadini oshirishga xizmat qiladi, investorlar uchun ijtimoiy manfaatlarni qo'llab-quvvatlash, daromadi yuksalgan korxonalariga kiritilgan sarmoyalaridan ko'zlangan daromadlarini olishlari uchun zamin yaratadi;

4. Tarmoq riski. "Yashil" moliyalashtirish orqali moliyalashtirilayotgan loyihalar jamiyat rivojiga hissa qo'shishi barobarida, umumiy yangi tarmoq rivojini, ushbu tarmoqqa investitsiyalar hajmini, pirovardida iqtisodiyotning o'sishiga turtki bo'ladi. Ushbu tarmoqni takomillashtirish undagi barcha tarmoqqa aloqado bo'lgan risklarni inobatga olish, kamchiliklarini bartaraf etish kerak bo'ladi. Buning uchun esa zaruriy meyoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilish va jozibador investitsiya muhitini yaratish orqali erishish mumkin;

5. Nabarqarorlik riski. Resurslar sarfini kamaytirish, xarajatlarni minimallashtirgan holda daromadni oshirishga xizmat qilar ekan, korxonalarda nobarqarorlikni oldini olishga erishiladi. "Yashil" moliyalashtirish usullaridan foydalangan holda "yashil" loyihalarni amalga oshirish, belgilangan maqsad va vazifalarga bosqichma-bosqich erishib borishda turli hil imtiyozlardan foydalanish, talab yuqori bo'lgan innovatsion energiya va boshqa resurslarni tejaydigand resurslarni ishlab chiqarish, raqobat nisbatan kam bo'lgan sohaga sarmoya kiritish,

sifatli va hamyonbop mahsulotlar nomeklaturasini taklif etish doimiy moliyaviy barqarorlikni saqlash uchun asos bo'ladi, hamda nobarqarorlik riskida saqlaydi;

6. Soliq riski. Bugungi kunda mamlakatlar "yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun muhim iqtisodiy qarorlar qabul qilishmoqda. Ularning ichida soliq tomonidan beriladigan imtiyozlarning nisbati yuqori hisoblanadi. "Yashil" moliyalashtirish metodlaridan foydalanishni va "yashil" iqtisodiyotga o'z hissasini qo'shishni maqsad qilgan korxonalar yohud investorlar davlat tomonidan berilgan soliq imtiyozlaridan foydalanishga to'liq haqdor hisoblanadilar. Soliq imtiyozlari soliq bilan bog'liq bo'lgan barcha risklarni minimallashtirishga xizmat qiladi. Soliq to'lanmasdan tejab qolingan mablag'lar innovatsion ekologik loyihani takomillashtirishga va loyiha ishtirokchilarini daromadini maksimallashtirishga yo'l ochadi.

Xulosa va takliflar

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirib o'tilgan risklar "yashil" moliyalashtirishda uchrashi mumkin bo'lgan asosiy risklardan bo'lib hisoblanadi. Ammo bu bilan risklar cheklanib qolinmaydi, faoliyat davomida "yashil" loyihalarni amalga oshiruvchi korxonalar boshqa mumtoz korxonalar kabi ko'plab moliyaviy risklarga duch kelishlari mumkin.

Markowitzning (2005) diversifikatsiya nazariyasiga muvofiq, yashil investitsiyalar, agar ikkinchisini baholashga ekologik omil kiritilgan bo'lsa, portfel riskini kamaytirishning muhim shartiga aylanadi. Past rentabellikka ega bo'lsa ham, ularni muvozanatli portfelni shakllantirish uchun zarur bo'lgan diversifikatsiyaning ustuvor elementlaridan biri deb hisoblash mumkin. Shunga ko'ra, "yashil" moliyalashtirish emitent uchun o'zining oliy maqsadi bolgan ekologiyani qo'llab-quvvatlash va shu orqali daromad olishini ko'zlasa, investor uchun investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish imkonini yaratadi

Shunday qilib, yashil moliyalashtirish moliyaviy risklarni kamaytirish instrumenti sifatida quyidagilarda namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin: iqlim inqirozini oldini olishga ko'maklashish, ekologiyani qo'llab-quvvatlash, ekologiyaga tahdid soluvchi korxonalardan chiquvchi zararli moddalar darajasini kamaytirishga hissalarini qo'shish; yuqori riskli ammo daromadi yuqori ko'zlangan istiqbolli korxonalarning innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, sog'lom raqobatga asoslangan "yashil" iqtisodiyotni barpo etish; "yashil" kompaniyalarga uzoq muddatli investitsiya kiritish va yuqori daromadga erishish; resurs sarfini kamaytirish, resurs yetishmovchiligini boshdan kechirayotgan davlatlarni muqobil resurslar bilan ta'minlash, davlatning iqtisodiyotini rivojlantirishga erishish; investitsiya portfelining risk darajasi past bo'lgan investitsiyani joylash orqali diversifikatsiya qilishni ta'minlash va boshqalar.

Adabiyotlar / Литература/ Reference:

Markowitz, H. (2005) *Market Efficiency: A Theoretical Distinction and So What?* / H. Markowitz // *Financial Analysts Journal*. – Vol. 61, iss. 5. – P. 7–30

Qaror (2022) "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022 yil 2 dekabrda PQ-436-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori

Erшов М.В., Танасова А.С., Соколова Е.Ю. (2020) О растущей роли «зеленых» финансов для обеспечения финансовой стабильности. ЭНСП № 2 (89) DOI: 10.33293/1609-1442-2020-2(89)-83-95

Найденова Т.А., Новокшенова Е.Н. (2022) СОСТОЯНИЕ «ЗЕЛЁНОГО» ФИНАНСИРОВАНИЯ В РОССИИ // *Вестник Алтайской академии экономики и права*. – № 7-1. – С. 114-120;

Полоник, С.С. (2018) *Мировой опыт формирования и развития «зеленых» инвестиций в условиях обеспечения устойчивого экономического роста* / С.С. Полоник, Э.В. Хоробрых, А.А. Литвинчук // *Вестник Полоцкого государственного университета. Серия D. Экономические и юридические науки*. – № 13. – С. 2–11.